



“AQOID AN-NASAFIY” ASARIDAGI GUNOHI KABIRALAR VA ULARNING IYMONGA TA’SIRI BORASIDAGI IXTILOFLAR

Abdulaziz Kamoladdinovich Abdullayev

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada gunohi kabiralar haqida qisqacha ma’lumot, Najmuddin Umar an-Nasafiyning “Aqoid an-Nasafiy” asarida gunohi kabiralar haqida kelgan ma’lumotlar va gunohi kabiralarning iymonga ta’siri borasidagi ixtiloflar keltirib o’tilgan.

Kalit so’zlar: Gunohi kabira, gunohi sag’ira, ilhod, xavorij, mo’tazila

Gunohlar ikki turga bo’linadi. Kabira va sag’ira – katta va kichik gunohlar. Katta gunohlarning soni cheklangan. Odam o’ldirish, zino qilish, sehr-jodu ishlatish, ota-onaga oq bo’lish, sudxo’rlik qilish kabilar katta gunohlardir. Ular to’qqiztadan to uch yuzgacha sanalgan. Xavorij toifasi katta gunoh qilgan kimsani kofir bo’ladi, deydilar. Bu qoida ularga raddiya sifatida aytilgan.

Gunohi kabiralar borasida turli xil rivoyatlar bor: Ibni Umar (rodiyallohu anhumadan rivoyat qilinishicha, kabiralar to’qqizta: Allohga shirk keltirish, haqsiz biror bir jonni o’ldirish, muxson (pok) ayolni zinoda ayblash, zino, urushdan qochish, sehr, yetimning molini yeyish, musulmon ota-onaga oq bo’lish va Haramda ilhod qilish (“ilhod” degani aslida “moyil bo’lish” degani. Keyinchalik “haqdan botilga moyil bo’lish” ma’nosiga g’olib bo’lgan. “Ilhod fil Haram” jumlasini ba’zan “shirk” deb tafsir qilishgan. Lekin bunda bahs qilingan. Chunki shirk gunohlarning eng kattasidir. Ba’zida ushbu



jumlani “zulm” kalimasi bilan, ba’zida esa mutloq “ma’siyat” kalimasi bilan tafsir qilishgan. Shuning uchun aytishganki: “Haram hududida qilingan kichik gunoh katta gunoh hisoblanadi”. Shuning uchun ba’zi salafilar Makkada muqim qolishni makruh hisoblashgan. Abdulloh ibn Abbos (rodiyallohu anhu) Makkadan chiqib, Toifni vatan qilib olgan. Abdulloh ibn Abbos (rodiyallohu anhu): “(Yomon) banda amal qilishdan oldin iroda tufayli (ya’ni yomon ishni amalga oshirmasdan oldin uni qilishni niyat qilish bilan) iqob qilinadigan yagona shahar Makkadir” degan. Umar ibn Xattob (rodiyallohu anhu) insonlar haj amallarini qilib bo’lishgach, ularni urib: “Ey Yaman ahli Yamanga, ey Shom ahli sizlar Shomga qaytib ketinglar” der edi). Abu Hurayro (rodiyallohu anhu) gunohi kabiralarga riboni yeyishni ham qo’shgan. Ali (rodiyallohu anhu) esa o’g’irlikni va xamr ichishni ham qo’shgan. Bir qiylda aytilishicha: “Shore’ shu narsa uchun va’iyd qiladigan narsalar kabiralardir”. Boshqa qiylda esa: “Banda kichik gunohda bardavom bo’lsa u katta gunohga aylanadi” deyilgan.¹

Najmuddin Umar an-Nasafiy (rohimahulloh) gunohi kabiralar haqida jumladan shunday deydi:

والكبيرة لا تخرج العبد المؤمن من الايمان ولا تدخله في كفر

Kabira (katta gunoh) mo’min bandani imondan chiqarmaydi va uni kufrga kiritmaydi.

Gunohi kabiralar masalasiga kirishishdan oldin, qaysi fiqaralar bilan ixtilof mavjudligi, o’sha fiqaralar aslida qayerdan kelib chiqqan, qanday fiqaralar ekanligi borasida ma’lumot berib o’tamiz.

Xavorijlarda takfir tushunchasi va ularga ulamolarning raddiyalari. “Takfir” so’zi “birovni kufrga kiritish”, “Islomdan ajratish” ma’nolarini anglatadi. Islom tarixidan ma’lumki, musulmonni gunohi sababli “kofir” deyishga birinchi bo’lib jur’at etganlar “Xavorij” fiqasi bo’ldi. Ular:” Mo’min kishi gunoh qilsa, kofir bo’ladi, islomdan chiqadi”,

¹ مولانا محمد علي. شرح العقائد النسفية المحشى بعقد الفرائد على شرح العقائد - مكتبة البشرى - 2009 ص . 262



- dedi. Bora-bora “Xavorij”larning musulmonlarni kofirga chiqarishdan boshqa qiladigan ishlari qolmadi. Ularning shariatga zid bu ishlari musulmonlar orasida ixtilof va ziddiyatlarni chiqarib qirg’inbarot urushlarga, musulmonlarning behisob qonlarini to‘kilishiga olib keldi. Ulamolarimiz xavorijlarchalik islomga katta zarar yetkazgan kuch bo‘lmaganini ta’kidlaydilar.²

Xavorij firqasi o‘zlariga qarshi bo‘lganlarni kofirga chiqarib ularning qonlarini to‘kishni halol sanaganlar. O‘zlariga qarshi chiquvchilarning diyorlarini “Dorul harb” (musulmon bo‘lmagan diyor) deb nomlaganlar. Ular Ali (rodiyallohu anhu) ning “tahkim” ni qabul qilishini kufr deb hisoblaganlar. Ya’ni Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) ning tarbiyalarini olib ulg‘aygan, tirikligidayoq jannat bashorati berilgan “Asharai mubashshara” (Jannatiy ekani aytilgan o‘n kishi) dan biri bo‘lgan zotni kofirga chiqarishgan. Har bir davrda ham Ahli sunna val jamoa ulamolari “jaholatga qarshi ma’rifat” bilan kurashga alohida e’tibor qaratganlar. Adashgan firqalarning xatolarini tushuntirib, ularni to‘g‘ri yo‘lga solishga, musulmonlarning birdamligi-yu tinch-totuvligini asrash yo‘lida jonbozlik ko‘rsatib kelganlar.

Mo‘tazila firqasi. Tobe’inlar davrida paydo bo‘lgan va o‘zlarining aqidaviy qarashlarini ishlab chiqqan firqa hisoblanadi. Bu firqaning asoschilari Vosil ibn Ato va Amr ibn Ubayd ismli shaxslar bo‘lgan. Aqidaviy qarashlarini ishlab chiqishda aqlga suyanganlar. Mo‘taziliylar ko‘proq yunon falsafasidan ta’sirlanganlar. Mo‘tazila firqasi Ismoiliya firqasi singari haddan oshib ketmagan. Imomlik masalasida Ahli sunna val jamoaga xilof qilmagan. Mo‘taziliylarning beshta asosiy qoidalari bo‘lgan:

1. Adl;
2. Tavhid;
3. Va’da va tahdid;

² O‘zbekiston Musulmonlari idorasi Fatvo markazi. Fiqh va aqidaga oid ixtilofli masalalar yechimi. –Toshkent: “Matbaachi” nashriyoti, 2024. –363 B.



4. Ikki manzil orasidagi manzil;

5. Yaxshi ishlarga buyurish va yomon ishlardan qaytarish.

Mo‘tazila firqasining boshqa firqalardan ajralib turadigan jihati shuki, bu firqa shia yo xavorijlarga o‘xshagan siyosiy firqa bo‘lmagan.³

Ahli sunna val jamoa mazhabiga ko‘ra gunohi kabiralar qilgan mo‘min kishi o‘sha gunohlariga tavba qilishga ulgurmasdan vafot etib ketgan bo‘lsa-da, do‘zaxda abadiy qolmaydi. Bunday kishilar qilgan osiyliklariga yarasha jazolanib, so‘ngra qalblarida imon borligi e‘tiboridan do‘zaxdan chiqariladilar. Bunday kishilar haqida hadisi sharifda xabar berilgan:

حدثنا عمران بن الحصين رضي الله عنهما عن النبي صلى الله عليه وسلم قال يَخْرُجُ قَوْمٌ مِنَ النَّارِ بِشَفَاعَةِ مُحَمَّدٍ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ فَيَدْخُلُونَ الْجَنَّةَ، يُسَمَّوْنَ الْجَهَنَّمِيِّينَ

Bizlarga Imron ibn Husayn (rodiyallohu anhumo) Nabiiy (sollallohu alayhi vasallam) dan eshitganini gapirib berdi: “Bir qavm Muhammad (sollallohu alayhi vasallam) ning shafotlari sababli do‘zaxdan chiqib, jannatga kiradilar, “jahannamiylar” deb nomlanadilar”. Buxoriy rivoyat qilgan. Sharh: Imom Buxoriy (rohimahulloh) rivoyat qilgan ushbu hadisi sharifga ko‘plab sharhlar yozilgan. Munoviy (rohmatullohi alayh) ning “Taysir bi sharhi jomi’is sog‘ir” kitobida quyidagicha sharhlangan: “Bu yerda ushbu ism ishlatiladigan darajada ularning jahannamda uzoq azoblanishlariga va hatto undan chiqishlariga umid ham uzilishiga ishora bor. Shundan so‘ng ular Rosululloh (sollallohu alayhi vasallam)ning shafotlari bilan undan chiqariladilar”. Muborakfuriy (rohimahulloh)ning “Tuhfatul Ahvaziy” kitobida quyidagicha sharhlangan: “Ushbu nom ularga atoqli ot bo‘lib, (jannatga kirganda ham) o‘zgarmagan bo‘ladi”. Hofiz (rohmatulloh alayh) “Fath”da quyidagilarni keltirgan, “Nasaiy Amr ibn Amrning Anas (rodiyallohu anhu)dan qilgan rivoyatida: “Jannat ahli “anavilar jahannamiylar” deyishganida, Alloh

³ Abdulqodir Abdur Rahim. E‘tiqod durdonalari. –Toshkent: “SHARQ” Nashriyoti –2016. –20 B.



taolo: “Ular Allohning ozod qilgan bandalaridir”, deb aytadi”, - deyilgan. Muslim (rohimahulloh) ushbu hadisni boshqa yo‘ldan Abu Sa’iddan rivoyat qilgan. O’sha rivoyatda: “Ular (ya’ni jahannamiylar deb nom olganlar) Allohga duo qiladilar, Alloh ulardan ushbu ismni ketkazadi”, lafzlari ziyoda qilingan”⁴

Gunohi kabira qilgan kishi borasida ahli sunna val jamoa bilan boshqa firqalar orasida ba’zi ixtiloflar mavjud. Ushbu ixtiloflarni va har tomon o‘z dalillarini va shu dalillardan qanday qilib hukm istinbot qilib olishganini keltirib o‘tamiz.

Ushbu masalada bizning avvalgi dalilimiz shuki, "Iymon bahsi"da keladigan qovlga binoan, iymonning haqiqati qalb bilan tasdiq qilishdir. Mo‘min kishi o’sha qalbiy tasdiqdan ajralmaydi, magaram qalbiy tasdiqqa zid keladigan narsa sodir bo‘lsagina iymondan ajraladi. Kabira gunohni sodir bo‘lishi bu shahvat g‘olib kelganligidan (zino kabi), jahl ustida, g‘ururlanib yoki dangasalik sababidan kelib chiqishi mumkin. Bu joyda xavorijlarga raddiya bor. Chunki ularning iddaosi bo‘yicha katta gunoh qilgan kishi o’sha gunohini Shore’ning va’iydini yolg‘onga chiqargan holida qiladi. Biz shunga raddiya o‘laroq u o’sha gunohlarini shahvat bilan yoki g‘azab tufayli yoki dangasalik sabab qilgan bo‘lishi mumkin, deymiz. Mabodo shu kabira gunohni sodir qilib qo‘yganidan keyin mo‘min bandada gunoh qilib qo‘ygani sabab iqobga qolishidan qo‘rqish keyinchalik esa avf qilinishiga umid paydo bo‘lishi va tavba qilishga azm-u qaror qilish kabi narsalar paydo bo‘lsa bu iymonga ya’ni qalbiy tasdiqqa teskari bo‘lmaydi. To‘g‘ri, agar shu katta gunohni halol sanab qilsa, yoki yengil sanasa kufr bo‘ladi. Chunki unda yolg‘onga chiqarish alomati bor. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, halol sanash degani biror bir harom amalni halol deb e’tiqod qilsa; yengil sanash degani esa harom amalni bajarishni "qilaversa iqobi unchalik qattiq bo‘lmaydi", "bemalol qilaversa bo‘ladi" deb qilsa kufr bo‘ladi. Muhaqqiq ulamo (rohimahumulloh)lar buni shunday sharh qilishgan: "Halol sanash va yengil sanashni zohiriga qarasak, aslida

⁴ Abdulqodir Abdur Rahim. E’tiqod durdonalari. –Toshkent: “SHARQ” Nashriyoti –2016. – 358 B.



bular ham yolgʻonga chiqarishning aynan oʻzidir (yaʼni harom amalni haromligini yolgʻonga chiqarib, uni halol deb hisoblash)."⁵

Ikkinchi dalilimiz, moʻmin kishining osiyiligi borasida mutloq kelgan oyati karimalar va hadisi shariflar. Masalan:

{ يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا كُتِبَ عَلَيْكُمُ الْقِصَاصُ فِي الْقَتْلِ }

“Ey imon keltirganlar, sizga oʻldirilganlar uchun qasos farz qilindi...”⁶

(Baqara surasi, 178-oyat). Ushbu oyatdan moʻmin banda kabira gunoh qilsa moʻmin holida qolishiga dalil olish koʻrinishi quyidagicha: Unga qasos vojib boʻlgan qotil shunday qotilki, u bir jonni nohaqdan oʻldirgan kishidir. Natijada u katta gunoh qilgan hisoblanadi. Shu bilan birga (oyatda) iymon bilan xitob qilinyapti.

Keyingi oyati karima:

{ يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا تَوْبُوا إِلَى اللَّهِ تَوْبَةً نَّصُوحًا }

“Ey imon keltirganlar! Allohga xolis tavba qilinglar!”⁷ (Tahrim surasi, 8-oyat). Ushbu oyatda “tavba qilinglar” jumlasining sharʼiy maʼnosi maʼsiyatdan toatga qaytish deganidir. Mana shuni joyi bizning dalilimizning asosidir.

Keyingi oyati karima:

{ وَإِنْ طَائِفَتَانِ مِنَ الْمُؤْمِنِينَ اقْتَتَلُوا }

“Agar moʻminlardan ikki toifa urushib ketsalar...”⁸ (Hujurot surasi, 9-oyat). Ushbu oyatdan dalil olish quyidagicha: ikki toifa moʻmin bir-biri bilan urushishi zulm va maʼsiyatdir. Shunga qaramasdan bu ikki toifa ham moʻmin deb nomlanmoqda.

XULOSA

⁵ مولانا محمد علي. شرح العقائد النسفية المحشى بعقد الفرائد على شرح العقائد - مكتبة البشرى - 2009 ص . 265

⁶ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – Toshkent: Hilol Nashr, 2022. –J. 1. – 165 B.

⁷ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – Toshkent: Hilol Nashr, 2022. –J. 6. –202 B.

⁸ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – Toshkent: Hilol Nashr, 2022. –J. 5. –549 B.



Xulosa qilib aytganda, Najmuddin Umar an-Nasafiyning “Aqoid an-Nasafiy” asari aqoid ilmida katta ahamiyat kasb etadi. Jumladan, gunohi kabiralarni ilmiy tadqiq qilish va ularning iymonga ta’siri borasida ixtiloflarni o’rganishda ushbu asar hujjat va dalil sifatida ulamlarning asosiy yordamchisi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 262. مولانا محمد علي. شرح العقائد النسفية المحشى بعقد الفرائد على شرح العقائد - مكتبة البشرى - 2009 ص.
2. O’zbekiston Musulmonlari idorasi Fatvo markazi. Fiqh va aqidaga oid ixtilofli masalalar yechimi. –Toshkent: “Matbaachi” nashriyoti, 2024. –363 B.
3. Abdulqodir Abdur Rahim. E’tiqod durdonalari. –Toshkent: “SHARQ” Nashriyoti –2016. –20 B.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – Toshkent: Hilol Nashr, 2022. –J. 1. – 165 B.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – Toshkent: Hilol Nashr, 2022. –J. 6. –202 B.
6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. – Toshkent: Hilol Nashr, 2022. –J. 5. –549 B.